

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc. 32/30.12.2020. Yu.74.01 RAQAMLI ILMIIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI**

**XOLBO‘TAYEV ABDUG‘ANI ABDURAXIMOVICH**

**DXX CHEGARA QO‘SHINLARINING MA‘MURIY  
HUQUQBUZARLIKLAR TO‘G‘RISIDAGI ISHLARNI YURITISH  
FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH**

12.00.02 – Konstitutsiyaviy huquq. Ma‘muriy huquq. Moliya va bojxona huquqi

**Yuridik fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Doktorlik (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации**

**Content of the abstract of doctoral (DSc) dissertation**

**Xolbo‘tayev Abdug‘ani Abduraximovich**

DXX Chegara qo‘shinlarining ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritish faoliyatini takomillashtirish.....3

**Холбутаев Абдугани Абдурахимович**

Совершенствование деятельности Пограничных войск СГБ по производству дел об административных правонарушениях.....35

**Kholbutaev Abdugani Abdurakhimovich**

Improving the activities of the Border Troops of the SSS in the production of cases of administrative offenses.....69

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....74

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc. 32/30.12.2020. Yu.74.01 RAQAMLI ILMIIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI**

**XOLBO‘TAYEV ABDUG‘ANI ABDURAXIMOVICH**

**DXX CHEGARA QO‘SHINLARINING MA‘MURIY  
HUQUQBUZARLIKLAR TO‘G‘RISIDAGI ISHLARNI YURITISH  
FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH**

12.00.02 – Konstitutsiyaviy huquq. Ma‘muriy huquq. Moliya va bojxona huquqi

**Yuridik fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.DSc/Yu264 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezume)) O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti veb-sayti ([www.mgju.uz](http://www.mgju.uz)) hamda «ZiyoNet» axborot-ta’lim portaliga ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy konsultant:** **Yuldashev Djaxongir Xayitovich**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** **Tursunov Axtam Salomovich**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Yakubov Shuxrat Ummataliyevich**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Ro‘ziyev Zafar Raimovich**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:** **O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.32/30.12.2020.Yu.74.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 16-dekabr soat 11:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100211, Toshkent viloyati, Zangiota tumani, Chorsu qo‘rg‘oni. Tel: +998971 230-32-71; faks +99871 230-32-50; Jxu@umail.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (3160-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100211, Toshkent viloyati, Zangiota tumani, Chorsu qo‘rg‘oni. Tel: +99871 230-32-71; faks +99871 230-32-50)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 2-dekabr kuni tarqatildi.

(2025-yil 2-dekabrda 23-raqamli reyestr bayonnomasi).



**M.X.Rustambayev**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,  
yuridik fanlar doktori, professor

**J.D.Axmedov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy  
kotibi, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori  
(PhD)

**Sh.X.Zulfiqorov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar  
doktori, professor

## KIRISH (doktorlik (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyo miqyosida globallashtirish va integratsiyalashuv jarayonlarining tezlashishi, geosiyosiy vaziyatning o'zgarishi va boshqa omillar aholi migratsiyasining tezlashuviga sabab bo'lmoqda. Dunyoning turli mintaqalarida, ayniqsa Yaqin Sharqdagi geosiyosiy vaziyatning yomonlashgani tufayli ko'p mamlakatlarga g'ayriqonuniy migratsiya jadallashib bormoqda. BMTning ma'lumotlariga ko'ra, hozirda 218 ta mamlakat doimiy migratsiya jarayonlarida ishtirok etmoqda. XXI asrning dastlabki o'n yilligida muhojirlarning eng ko'p o'sishi Osiyo (yiliga 1,7 million), undan keyin Yevropa (yiliga 1,3 million) va Shimoliy Amerika (yiliga 1,1 million) mintaqasiga to'g'ri kelmoqda. Xalqaro migratsiya tashkilotining ta'kidlashicha, 2030 yilga kelib migratsiya oqimlari 300 milliondan ko'payishi g'ayriqonuniy migratsiyaning oshishiga ta'sir ko'rsatadi<sup>1</sup>. Bu esa o'z navbatida davlat chegarasini qo'riqlash sohasidagi huquqbuzarliklarning sodir etilish ko'rsatgichining o'sishiga imkon yaratadi. MDH davlatlari Chegara qo'shinlari qo'mondonlari kengashi Muvofiqlashtiruvchi xizmatining ma'lumotlariga ko'ra<sup>2</sup>, birgina 2023-yilda davlat chegarasini qo'riqlash sohasida sodir etilgan ma'muriy huquqbuzarliklar Rossiyada – 6 606 ta, Ozarbayjonda – 1881 ta, Belorusda – 1817 ta, O'zbekistonda – 1 267 ta, Qozog'istonda esa – 935 tani tashkil etganligi bu turdagi huquqbuzarliklarning oldini olish va ularga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Jahonda migratsiya jarayonlarining va davlat chegaralarini g'ayriqonuniy kesib o'tishga urinishlarning kuchayishi zamirida davlat chegarasini qo'riqlash funksiyasini amalga oshiruvchi davlat organlarining ushbu sohadagi huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish faoliyatidagi mavjud muammolarni o'rganishga oid ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, ayniqsa g'ayriqonuniy migratsiya jarayonlarini huquqiy tartibga solish, qonunga xilof ravishda davlat chegarasini kesib o'tish bilan bog'liq huquqbuzarliklarni kvalifikatsiya qilish va ushbu noqonuniy xatti-harakatlarga nisbatan jazo tayinlash, ularning sodir etilish sabablari va shart-sharoitlarini aniqlash hamda oldini olishning yangi yo'nalish va istiqbollarni tadqiq etish, ushbu sohadagi huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish sohasida shaxs huquq va erkinliklarini ta'minlash bilan bog'liq muammolarning ilmiy asoslangan yechimlarini topishga qaratilgan tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Respublikamizda ham davlat chegarasini qo'riqlash sohasidagi ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish faoliyatini samarali yo'lga qo'yish, ushbu sohadagi ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish, shaxs huquq va erkinliklari himoyasini ta'minlashga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda. Xususan, «O'zbekiston – 2030» Strategiyasining<sup>3</sup> «Xavfsiz va tinchliksevar davlat» tamoyiliga asoslangan siyosatni

<sup>1</sup> [www.un.org/ru/sections/issues-depth/migration/index.html](http://www.un.org/ru/sections/issues-depth/migration/index.html) (murojaat vaqti: 18.11.2024).

<sup>2</sup> MDH davlatlari Chegara qo'shinlari qo'mondonlari kengashi Muvofiqlashtiruvchi xizmati tomonidan DXX Chegara qo'shinlariga taqdim etilgan ma'lumotlar asosida keltirildi.

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi «O'zbekiston – 2030» strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son farmoni // Elektron manba: <https://lex.uz/docs/6600413> (murojaat vaqti: 16.02.2024).

izchil davom ettirish yo‘nalishi doirasida (99-maqсад) – chegaralar xavfsizligini mustahkamlash masalasi alohida qayd etildi. Mazkur vazifaning belgilab berilganligi shaxslarning davlat chegarasida, chegara zonasi va chegara mintaqasida harakatlanishlari va bo‘lishlari, ushbu sohada sodir etilayotgan ma‘muriy huquqbuzarliklarning oldini olish va ularga qarshi kurashish samaradorligini oshirish, shuningdek DXX Chegara qo‘shinlarining ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritish faoliyatining ilmiy-nazariy asoslari va huquqiy mexanizmlarini takomillashtirishni taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi (1994), «O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati to‘g‘risida»gi (2018) va «O‘zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi to‘g‘risida»gi qonunlari (2023), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi (2022), «O‘zbekiston – 2030» strategiyasi to‘g‘risida»gi (2023) farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining «Sudlar tomonidan ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rishni tartibga soluvchi qonunlarni qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi qarori (2018) hamda sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi**<sup>4</sup>. Davlat chegarasini noqonuniy kesib o‘tish, migratsiya, chegara organlarining mazkur sohadagi huquqbuzarliklarning oldini olish va ularga qarshi kurashishning ilmiy-nazariy asoslarini rivojlantirish, tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirishga oid ilmiy tadqiqotlar dunyoning yetakchi universitetlari va tadqiqot markazlari, jumladan Nyu York Migratsion tadqiqotlar markazi (AQSH), Xalqaro migratsiya instituti (Amsterdam), Oksford universiteti (Buyuk Britaniya), MDH davlatlari Chegara qo‘shinlari qo‘mondonlari kengashi Muvofiqlashtiruvchi xizmati (Moskva), SHHTning Mintaqaviy aksiterror tuzilmasi (Toshkent), shuningdek Rossiya, Belarus, Ukraina va Qozog‘iston davlatlarining Chegara akademiyalarida olib borilmoqda.

Xorijiy mamlakatlarda davlat chegarasi daxlsizligini ta‘minlash, ushbu sohadagi huquqbuzarliklarga qarshi kurashish bo‘yicha quyidagi ilmiy natijalar olingan: chegara mojarolarining oldini olish va o‘zaro ishonchni mustahkamlash choralari kuchaytirishga qaratilgan chegaralarni boshqarish mexanizmining konsepsiyasini qabul qilish zarurati asoslab berilgan, noqonuniy migratsiya, ichki migratsiya, qochoqlar, odam savdosi va kontrabandasini tartibga solishda xalqaro hamkorlikni ta‘minlash usullarini takomillashtirish asoslantirilgan (Nyu York

---

<sup>4</sup> Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi quyidagi manbalar asosida yoritilgan: [www.un.org](http://www.un.org), [cmsny.org/](http://cmsny.org/), [www.migrationinstitute.org/](http://www.migrationinstitute.org/), [www.oxford.academia.yedu.uk](http://www.oxford.academia.yedu.uk), [www.skpw.ru](http://www.skpw.ru), [www.minit.fsb.ru](http://www.minit.fsb.ru), [www.shekaraknb.kz](http://www.shekaraknb.kz), [www.ips.gpk.gov.by](http://www.ips.gpk.gov.by).

Migratsion tadqiqotlar markazi (AQSH), Xalqaro migratsiya instituti (Amsterdam), Oksford universiteti (Buyuk Britaniya); «Chegara xavfsizligi to‘g‘risida», «Chegara idoralari haqida»gi namunaviy qonunlarda «davlat chegarasi rejimi», «davlat chegarasi orqali o‘tkazish punktlari rejimi», «chegara rejimi» va boshqa ilmiy tushunchalar asoslab berilgan va xalqaro hamkorlik amaliyotiga tatbiq etilgan (MDHning Chegara qo‘shinlari qo‘mondonlari Kengashi, SHHTning Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi); davlat chegarasini qo‘riqlash sohasidagi huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni samarali yuritishga ta‘sir ko‘rsatayotgan omillar aniqlangan, davlat chegarasi rejimi va chegara rejimini buzganlik uchun ma‘muriy javobgarlik asoslari takomillashtirilgan, chegara nazorati bo‘linmalarining ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritish samaradorligini oshirish zarurati asoslantirilgan, chegara organlarining bu boradagi faoliyatini xalqaro standartlar va huquq normalariga muvofiqlashtirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqilgan (Rossiya, Belarus, Qozog‘iston Chegara akademiyalari).

Dunyoda davlat chegarasini qo‘riqlash sohasidagi huquqbuzarliklar profilaktikasi, bu borada chegara organlarining ish yurituviga doir faoliyatni takomillashtirish bilan bog‘liq muammolarning yechimini topishga qaratilgan quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda: chegara xavfsizligini ta‘minlashga to‘sqinlik qilayotgan omillarni aniqlash hamda bartaraf etish; chegara organlarining huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritish faoliyati samaradorligini oshirish va bu borada xalqaro hamkorlikni rivojlantirish bilan bir qatorda mazkur sohadagi ishlarni yuritishda shaxs huquqlari va manfaatlarini kafolatlashga oid tadqiqotlar olib borilmoqda.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Mamlakatimizda huquq nazariyasining yetakchi olimlari: X.R.Alimov, A.A.Allanova, D.Q.Axmedov, S.T.Axmedova, S.Dj.Djoldasova, I.Ismailov, P.A.Makkambayev, A.A.Muxammadiyev, X.T.Odilqoriyev, B.E.Qosimov, M.X.Rustambayev, A.X.Saidov, S.M.Selimanova, F.R.Samig‘jonov, A.S.Tursunov, O.K.Turg‘unov, E.T.Xojiyev, Dj.X.Yuldashev, S.B.Yusupov, M.Z.Ziyodullayev hamda Sh.X.Zulfiqarovlar tomonidan chegara xavfsizligining xalqaro-huquqiy muammolari, chegara organlarining huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritish faoliyatining umumiy jihatlari, pasport tizimi, migratsiyani tartibga solishni takomillashtirishning nazariy-huquqiy jihatlari o‘rganilgan.

MDH mamlakatlarida chegara idoralarining ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritishning huquqiy asoslari, ilmiy-nazariy jihatlari, ushbu faoliyatning shakllanishi va rivojlanish tarixi hamda bu boradagi faoliyatni tartibga solishga qaratilgan qonunchilik hujjatlarining qiyosiy-huquqiy tahlili S.P.Anatoliy, M.S.Askerov, N.V.Brovko, V.Yu.Gorbunov, Yu.P.Gapon, A.A.Istratov, D.R.Kevevorkov, V.P.Kuzmin, T.V.Kikot-Gluxodedova, D.V.Moiveyev, A.V.Pershina, M.G.Prusakova, V.N.Reshetnikov, A.A.Simakov, V.E.Stepenko, Yu.A.Sokolova, A.V.Stepanov, Yu.N.Starilov, M.B.Smolenskiy, N.V.Trofimchuk, O.N.Sherstoboyev, I.V.Shatoxin, O.A.Yusupova va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan.

Chegara xizmati organlari faoliyatida ma‘muriy-huquqiy faoliyatning tartibga solinganlik holati, huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritish faoliyati va o‘ziga xos jihatlari bo‘yicha ilmiy izlanishlar xorij olimlaridan X.E. de Arechaga,

J.Babotola, Ya.Brounli, B.N.Gabrichidze, A.N.Kim-Kimen, N.Klement, D.Kollingvudlar tomonidan olib borilgan.

Respublikamizda P.A.Makkambayev «O‘zbekiston Respublikasi chegara xavfsizligining xalqaro-huquqiy muammolari», A.A.Allanova «Qonunga xilof ravishda chet elga chiqish yoki O‘zbekiston Respublikasiga kirish uchun javobgarlik: jinoyat-huquqiy va kriminologik muammolar» mavzusida doktorlik va falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalarini himoya qilganlar. Ularning tadqiqot ishlarida davlat chegarasi daxlsizligini ta’minlashning xalqaro-huquqiy muammolari va ularning yechimlari, qonunga xilof ravishda davlat chegarasini kesib o‘tganlik bo‘yicha jinoiy-huquqiy javobgarlikning o‘ziga xos jihatlari, davlat chegarasi rejimi va chegara rejimining huquqiy ahamiyati, chegara xavfsizligining huquqiy tabiati va mohiyatini ochib berishda sohaga oid qonunchilik hujjatlarini qo‘llashning ilmiy ahamiyatiga doir masalalar yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Shu bilan birga, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida amaldagi qonunchilik va huquqni qo‘llash amaliyoti, xalqaro huquq normalari hamda ayrim xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribalari inobatga olingan holda, DXX Chegara qo‘shinlarining ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritish faoliyatini takomillashtirish masalalari maxsus tadqiq etilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetining «2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan ilmiy tadqiqot ishlari kompleks dasturi»ga muvofiq, «DXX Chegara qo‘shinlarining ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritish faoliyatini takomillashtirish» mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** DXX Chegara qo‘shinlarining ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritish faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

DXX Chegara qo‘shinlarining ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritish faoliyatining mohiyati va nazariy-huquqiy jihatlarini yoritib berish;

DXX Chegara qo‘shinlarining ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yurituvchi subyekt sifatidagi ma‘muriy-huquqiy maqomining mohiyatini ochib berish va uning shakllanish bosqichlarini tahlil qilish;

ish yurituvchi DXX Chegara qo‘shinlari vakolatiga tegishli bo‘lgan ma‘muriy huquqbuzarliklarning yuridik tavsifini yoritib berish, ushbu sohadagi huquqbuzarliklarni malakalash borasidagi muammolarni bartaraf etish yuzasidan ilmiy xulosa va takliflar ishlab chiqish;

DXX Chegara qo‘shinlarining ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritish amaliyoti tahlili natijasida yuzaga kelayotgan muammo va kamchiliklarni tadqiq etish hamda ularning yechimiga doir ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqish;

DXX Chegara qo‘shinlari tomonidan ma‘muriy oldini olish choralari qo‘llash amaliyotini tahlil qilish va mazkur faoliyatni takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

DXX Chegara qo'shinlari tomonidan ma'muriy cheklash choralarini qo'llash amaliyotini tadqiq qilish va undagi mavjud muammolarni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

DXX Chegara qo'shinlarining ma'muriy jazo qo'llash borasidagi faoliyatining bugungi holatini tahlil qilish va yuzaga kelayotgan huquqiy muammolarni bartaraf qilishga doir takliflarni shakllantirish;

davlat chegarasini qo'riqlash sohasidagi ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish borasida ilg'or xorijiy davlatlarning tajribalarini tahlil qilish, umumlashtirish va milliy qonunchilikka joriy etish bo'yicha xulosalarni shakllantirish;

DXX Chegara qo'shinlarining ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish orqali ularni takomillashtirishga qaratilgan takliflarni ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning obyekti** DXX Chegara qo'shinlarining ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish faoliyatini tartibga solish bilan bog'liq ijtimoiy-huquqiy munosabatlar tashkil etadi.

**Tadqiqot predmeti** DXX Chegara qo'shinlarining ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, ularni qo'llash amaliyoti, ayrim xorijiy mamlakatlarning qonunchiligi, shuningdek yuridik fanda mavjud konseptual yondashuvlar, ilmiy-nazariy qarashlardan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot davomida ilmiy bilishning analiz, sintez, induksiya, deduksiya, tarixiy va tizimli yondashuv, kuzatish, sotsiologik so'rov, statistik tahlil, qiyosiy-huquqiy, mantiqiylik usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

huquqbuzarliklarning sodir etilish sabablari hamda ularga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf etish yuzasidan Davlat xavfsizlik xizmati organlarining yozma taqdimnomalarini bajarish choralarini ko'rmaganlik uchun ma'muriy javobgarlikni belgilash zarurati asoslantirilgan;

DXX Chegara qo'shinlari harbiy xizmatchilarining qonuniy talablarini bajarmaganlik va ularning o'z xizmat burchini bajarishiga qarshilik ko'rsatganlik uchun qo'llaniladigan ma'muriy jazo choralarini kuchaytirish orqali ushbu turdagi huquqbuzarliklarning oldini olish samaradorligini oshirish mumkinligi asoslab berilgan;

O'zbekiston Respublikasining davlat chegarasini qo'riqlash uchun barpo etilgan (o'rnatilgan) muhandislik-texnika inshootlari va to'siqlardan tashqari qo'riqlashning boshqa texnik vositalarini yo'q qilganlik yoki ularga shikast yetkazganlik bilan bog'liq g'ayrihuquqiy qilmishlarni ma'muriy javobgarlik doirasiga kiritish zarurati isbotlangan;

chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar tomonidan O'zbekiston Respublikasida bo'lish qoidalarini buzish bilan bog'liq ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish va ularga nisbatan jarima tariqasidagi ma'muriy jazo chorasini qo'llash vakolatini ichki ishlar organlari bilan bir qatorda DXX Chegara qo'shinlariga ham berish lozimligi asoslantirilgan;

ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqishda davlat chegarasini qo'riqlash sohasidagi ma'muriy huquqbuzarliklarni to'g'ri malakalash uchun davlat chegarasi rejimi va chegara rejimi buzilishi sifatida baholanadigan tartib va qoidalarning aniq chegarasini qonunchilikda belgilab qo'yilishi lozimligi isbotlangan;

davlat chegarasini qo'riqlash sohasidagi huquqbuzarliklarning profilaktikasi, davlat chegarasi va chegara mintaqasida sodir etilgan huquqbuzarliklarni aniqlash borasidagi samarali xalqaro hamkorlikni ta'minlashga chegaradosh davlatlar bilan Hukumatlararo bitimlarni rasmiylashtirish orqali erishish mumkinligi asoslab berilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijasi** quyidagilardan iborat:

chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning davlat chegarasi rejimi, o'tkazish punktlari rejimi va O'zbekiston Respublikasida bo'lish qoidalarini buzganliklari uchun O'zbekiston Respublikasidan ma'muriy tarzda chiqarib yuborish jazosi tayinlanishi mumkin bo'lgan huquqbuzarliklar davlat chegarasi orqali o'tkazish punktlarida aniqlangan taqdirda, mazkur jazo chorasi DXX Chegara qo'shinlarining mansabdor shaxslari tomonidan qo'llanilishi lozimligi isbotlandi;

davlat chegarasi rejimini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlikni belgilash, shuningdek DXX Chegara qo'shinlarining ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan «O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish haqida»gi qonun loyihasi ishlab chiqildi;

chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar tomonidan sodir etilgan ma'muriy huquqbuzarliklar uchun tayinlangan jarima summasining belgilangan muddatda to'lanmaganligi kelgusida ushbu jazo chorasi ijro etilmagunga qadar ularning O'zbekiston Respublikasiga kirishi va chiqishini taqiqlash uchun asos bo'lishini nazarda tutuvchi O'zbekiston Respublikasining qonuni loyihasi ishlab chiqildi;

ma'muriy tartibda ushlanganlarning qonuniy manfaatlarini muhofaza qilish maqsadida, Hukumat qarori bilan tasdiqlanadigan «Ma'muriy huquqbuzarlik sodir etganligi uchun ushlanganlarni saqlash, ularni ovqatlantirish va tibbiy ta'minotini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom» loyihasi ishlab chiqildi;

davlat chegarasini qo'riqlash bilan bog'liq huquqbuzarliklar profilaktikasi samaradorligini oshirishga qaratilgan Hukumat qarori bilan tasdiqlanadigan «Davlat chegarasini qo'riqlash sohasidagi huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki mazkur turdagi huquqbuzarlikka qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi nizom» loyihasi ishlab chiqildi;

ma'muriy huquqbuzarliklarni to'laqonli malakalashga imkon bermayotgan omillarni bartaraf etish, shuningdek davlat chegarasi rejimi va chegara rejimi bilan belgilanadigan tartib-qoidalarni aniqlashtirishga qaratilgan Hukumat qarori bilan tasdiqlanadigan «O'zbekiston Respublikasi Davlat chegarasi rejimi to'g'risidagi nizom» va «O'zbekiston Respublikasi hududida chegara rejimi to'g'risidagi nizom» loyihalari ishlab chiqildi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Ilmiy izlanish natijalari xalqaro huquq va milliy qonunchilik normalari, ilg‘or xorij tajribalari, huquqni qo‘llash amaliyoti, rasmiy manbalardan olingan nazariy qarashlar va metodologik yondashuvlar, DXX Chegara qo‘shinlarining 968 nafar mutaxassisleri (harbiy xizmatchilari) bilan o‘tkazilgan sotsiologik so‘rov hamda empirik materiallar, 250 dan ortiq ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlar hamda DXX Chegara qo‘shinlarining bu boradagi amaliyotiga oid 2019–2024-yillardagi rasmiy statistik ma‘lumotlar tahlillariga asoslangan bo‘lib, tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan. Xulosa, taklif hamda tavsiyalar aprotatsiyadan o‘tkazilib, natijalari yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e‘lon qilingan. Olingan natijalar vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga joriy qilingan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan ilmiy xulosa, taklif va tavsiyalardan mavzuga oid konseptual va nazariy-metodologik qarashlarni boyitishda, ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlarini sharhlashda, milliy qonunchilik hujjatlarini takomillashtirishda, konstitutsiyaviy, xalqaro, ma‘muriy huquq fanlarini ilmiy-nazariy jihatdan boyitishda, shuningdek mazkur yo‘nalishdagi yangi ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish hamda yuridik oliy o‘quv yurtlarining ta‘lim jarayonida foydalanish mumkin.

Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan tavsiya va xulosalarning amaliy ahamiyati shundan iboratki, ularning joriy etilishi DXX Chegara qo‘shinlarining ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritish faoliyatini takomillashtirishga, ushbu sohada shaxs huquq va manfaatlarini himoya qilish darajasini va Chegara qo‘shinlari bo‘linmalari faoliyatining samaradorligini oshirishga hamda davlat chegarasining daxlsizligini yanada ishonchli himoya qilishga xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** DXX Chegara qo‘shinlarining ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritish faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

huquqbuzarlik sabablari va shart-sharoitlarini bartaraf etish yuzasidan DXX organlarining yozma taqdimnomalarini bajarish choralarini ko‘rmaganlik uchun ma‘muriy javobgarlikni belgilashga doir taklifdan O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-apreldagi «O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga O‘zbekiston Respublikasining Davlat chegarasini qo‘riqlash va himoya qilishni yanada kuchaytirishga qaratilgan qo‘shimcha va o‘zgartishlar kiritish haqida»gi O‘RQ-832-son Qonunining 1-moddasi ikkinchi bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasining 2023-yil 19-iyundagi 04/5-10-28-son dalolatnomasi). Mazkur taklifning inobatga olinishi davlat chegarasini qo‘riqlash sohasidagi huquqbuzarliklarning sodir etilish sabablari hamda ularga imkon bergan shart-sharoitlarning bartaraf etilishiga xizmat qilgan;

DXX Chegara qo‘shinlari harbiy xizmatchilarining qonuniy talablarini bajarmaganlik va ularning o‘z xizmat burchini bajarishiga qarshilik ko‘rsatganlik uchun ma‘muriy jazo choralarini kuchaytirishga doir takliflardan O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-apreldagi «O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy

javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasini qo'riqlash va himoya qilishni yanada kuchaytirishga qaratilgan qo'shimcha va o'zgartishlar kiritish haqida»gi O'RQ-832-son Qonunining 1-moddasi uchinchi va to'rtinchi bandlarini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasining 2023-yil 19-iyundagi 04/5-10-28-son dalolatnomasi). Ushbu takliflarning inobatga olinishi mazkur turdagi huquqbuzarliklar uchun tayinlanadigan jazo choralarning ta'sirchanligi oshishiga va bunday huquqbuzarliklar profilaktikasi samaradorligiga xizmat qilgan;

davlat chegarasini qo'riqlash uchun barpo etilgan qo'riqlashning texnik vositalarini yo'q qilganlik yoki ularga shikast yetkazganlik uchun qonun hujjatlarida javobgarlikni belgilashga doir takliflardan O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-apreldagi «O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasini qo'riqlash va himoya qilishni yanada kuchaytirishga qaratilgan qo'shimcha va o'zgartishlar kiritish haqida»gi O'RQ-832-son Qonunining 1-moddasi beshinchi bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasining 2023-yil 19-iyundagi 04/5-10-28-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy etilishi natijasida davlat chegarasini qo'riqlash uchun barpo etilgan qo'riqlashning texnik vositalarini yo'q qilganlik yoki ularga shikast yetkazganlik bilan bog'liq qilmishlar ma'muriy javobgarlik doirasiga kiritilgan;

O'zbekiston Respublikasida bo'lish qoidalarini buzish (MJtKning 225-moddasi) bilan bog'liq ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish vakolatini DXX Chegara qo'shinlariga ham berish to'g'risidagi taklifdan O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-apreldagi «O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasini qo'riqlash va himoya qilishni yanada kuchaytirishga qaratilgan qo'shimcha va o'zgartishlar kiritish haqida»gi O'RQ-832-son Qonunining 1-moddasi sakkizinchi bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasining 2023-yil 19-iyundagi 04/5-10-28-son dalolatnomasi). Mazkur taklifning joriy etilishi natijasida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini mustahkamlanib, ularning ovoragarchiliklariga chek qo'yilgan, shuningdek ular tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklar uchun javobgarlikning muqarrarligi ta'minlangan;

davlat chegarasi rejimi va chegara rejimi buzilishi sifatida baholanadigan tartib-qoidalarining qonun hujjati bilan belgilanishiga oid taklifdan O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 13-sentabrdagi «O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi to'g'risida»gi O'RQ-868-son Qonunining 46, 52-moddalarini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasining 2023-yil 28-dekabrda 04/5-10-2047-son dalolatnomasi). Ushbu takliflarning inobatga olinishi davlat chegarasi rejimi va chegara rejimi buzilishini belgilovchi qoidalarining aniq mezonlari ishlab chiqilishiga hamda huquqni qo'llash amaliyotiga tatbiq etilishiga xizmat qilgan;

davlat chegarasini qo'riqlash sohasidagi huquqbuzarliklarning oldini olish va ularga barham berish, davlat chegarasi va chegara mintaqasida sodir etilgan huquqbuzarliklarni aniqlashda samarali hamkorlikni tashkillashtirishga oid takliflardan O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Qozog'iston Respublikasi Hukumati o'rtasida 2024-yil 8-avgustda imzolangan «O'zbekiston-Qozog'iston Davlat chegarasi rejimi to'g'risida»gi Bitimning 2-moddasi 7-bandi, 20, 21, 25-moddalarini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmatining 2024-yil 10-sentabrdagi 30/6-13391-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning inobatga olinishi qo'shni Qozog'iston Respublikasi bilan davlat chegarasi va chegara mintaqasida sodir etilgan huquqbuzarliklarni aniqlash va unga qarshi kurash borasidagi hamkorlikning samarali yo'lga qo'yilishiga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiya tadqiqot ishining asosiy natijalari 4 ta respublika va 3 ta xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy konferensiya va davra suhbatlarida aprobatsiyadan o'tgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusiga doir jami 32 ta ilmiy ish, jumladan 3 ta monografiya, dissertatsiya natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 22 ta maqola (shundan, 2 tasi xorijda), respublika va xalqaro konferensiyalar to'plamlarida 7 ta maqola chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi kirish, to'qqiz paragrafni o'z ichiga olgan to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, shartli belgilar va atamalar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 246 betni tashkil qiladi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish qismida (dissertatsiyaning annotatsiyasida)** tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi, dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti hamda predmeti, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprotatsiyasi hamda e'lon qilinganligi, dissertatsiya ishining tuzilishi va hajmi yoritilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi «**DXX Chegara qo'shinlarining ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish faoliyatining nazariy-huquqiy asoslari**»ga bag'ishlangan. Unda DXX Chegara qo'shinlarining ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish faoliyatining mohiyati tavsiflangan hamda ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yurituvchi subyekt sifatidagi ma'muriy-huquqiy maqomi kompleks tadqiq etilgan.

Ushbu bobning birinchi paragrafi «DXX Chegara qo'shinlarining ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish faoliyatining mohiyati va nazariy-huquqiy jihatlari» deb nomlangan bo'lib, DXX Chegara qo'shinlarining ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish faoliyatining mohiyati va nazariy-huquqiy jihatlari tadqiq etilgan, mazkur faoliyatni samarali tashkil qilishda Chegara qo'shinlari tomonidan e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan holatlar yoritib berilgan. Shuningdek, DXX Chegara qo'shinlarining ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish faoliyati ijtimoiy munosabatlarning bir shakli sifatida mazmun-mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan.

M.X.Rustambayev, L.L.Kruglikov, R.I.Idayatov, V.I.Zemsov, G.G.Shinkaretskaya, X.T.Odilqoriyev, S.P.Anatoliy, Y.P.Gapon, D.R.Keverkovlarning «Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish» institutining yuridik tabiati haqidagi qarashlari tahlil etilib, davlat chegarasini qo'riqlash sohasidagi ma'muriy huquqbuzarliklarning mohiyati ochib berilgan. Tahlillar natijasida quyidagicha mualliflik ta'riflari ishlab chiqilgan:

*davlat chegarasini qo'riqlash sohasidagi ma'muriy huquqbuzarliklar – qonunchilikka binoan ma'muriy javobgarlikka tortish nazarda tutilgan, davlat chegarasini qo'riqlash sohasidagi ijtimoiy munosabatlarga bevosita zarar yetkazadigan, aybli, g'ayrihuquqiy qilmishlar;*

*DXX Chegara qo'shinlarining ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish faoliyati – ma'muriy protsess tarkibidagi ma'muriy yurisdiksiyaviy faoliyatning bir qismi bo'lib, ma'muriy qonunchilik hujjatlariga muvofiq, DXX Chegara qo'shinlari mansabdor shaxslari tomonidan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni qo'zg'atish, ish bo'yicha dalillar to'plash, protsessual hujjatlarni rasmiylashtirish, ish yuritishni ta'minlash choralarini qo'llash, ularni ko'rib chiqish, qabul qilingan qarorlarni ijro etishgacha bo'lgan harakatlar majmui.*

Muallif DXX Chegara qo‘shinlarining bevosita davlat chegarasini qo‘riqlash bo‘yicha vazifalarini amalga oshirish jarayonida sodir etiladigan MJtKning 196<sup>1</sup>, 196<sup>2</sup>, 224, 224<sup>1</sup>, 224<sup>2</sup>-moddalarida nazarda tutilgan huquqbuzarliklarni davlat chegarasini qo‘riqlash sohasidagi ma‘muriy huquqbuzarliklar sifatida baholagan.

DXX Chegara qo‘shinlarining ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritish faoliyatini quyidagi tor va keng ma‘noda tushunilishi asoslantirilgan:

*tor ma‘noda:* DXX Chegara qo‘shinlari harbiy xizmatchilari tomonidan ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritish bo‘yicha MJtKda belgilangan protsessual harakatlarni amalga oshirish;

*keng ma‘noda:* DXX Chegara qo‘shinlari harbiy xizmatchilari tomonidan davlat chegarasini qo‘riqlash vazifasini amalga oshirish jarayonida aniqlanadigan ma‘muriy huquqbuzarliklar bo‘yicha mazkur huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritish yuzasidan ma‘muriy protsessual harakatlarni amalga oshirishda qo‘llaniladigan tadbirlar majmui.

DXX Chegara qo‘shinlarining ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritish faoliyatining quyidagi o‘ziga xos xususiyatlari ochib berilgan:

*birinchidan,* DXX Chegara qo‘shinlarining ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritish faoliyatining huquqiy asoslari nafaqat qonun hujjatlari, balki DXX ichki idoraviy hujjatlari bilan ham tartibga solinganligi;

*ikkinchidan,* DXX Chegara qo‘shinlari mansabdor shaxslariga MJtK moddalarining sanksiyalarida to‘g‘ridan-to‘g‘ri keltirib o‘tilgan jazo chorasi, ya‘ni shaxslarni O‘zbekiston Respublikasi hududidan ma‘muriy tarzda chiqarib yuborish jazosini qo‘llash bo‘yicha tegishli hujjatlarni rasmiylashtirish orqali jinoyat ishlari bo‘yicha tegishli sudlarga taqdim etish vakolatining belgilab berilganligi;

*uchinchidan,* DXX Chegara qo‘shinlari mansabdor shaxslari tomonidan ko‘p holatlarda xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar tomonidan sodir etilgan ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarning ko‘rib chiqilishi;

*to‘rtinchidan,* qonun hujjatlari bilan ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritish faoliyatida ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiquvchi DXX Chegara qo‘shinlari harbiy xizmatchilarining doirasi aniq belgilanmaganligi.

Birinchi bobning ikkinchi paragrafi «*DXX Chegara qo‘shinlarining ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yurituvchi subyekt sifatidagi ma‘muriy-huquqiy maqomining shakllanishi*» deb nomlangan bo‘lib, dissertant unda DXX Chegara qo‘shinlarining ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yurituvchi subyekt sifatidagi maqomining shakllanishi va rivojlanishini tadqiq etgan.

Mustaqillikning dastlabki yillarida DXX Chegara qo‘shinlarining huquqiy maqomi shakllanib, ma‘lum darajada mustahkamlangan, biroq ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yurituvchi subyekt sifatidagi faoliyati Sobiq Ittifoq tuzumidan qolgan tartib va usullar asosida olib borilgan. Mazkur paragrafda o‘tgan davr mobaynida amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar va ular natijasida o‘rnatilgan tartib-qoidalarining o‘ziga xos xususiyatlari tadqiq qilingan.

Dissertant tomonidan davlat xavfsizligini ta'minlash sohasidagi qonun hujjatlaridagi mavjud huquqiy bo'shliqlarni bartaraf etish maqsadida, «O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati to'g'risida»gi qonuniga ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish DXXning asosiy faoliyat yo'nalishlaridan biri sifatida va ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish esa, DXX harbiy xizmatchilari huquqlarining bir ko'rinishi ekanligini belgilash, shuningdek maxsus vositalarni ma'muriy huquqbuzarliklarga barham berishda ham qo'llash vakolatini taqdim etish bo'yicha o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha takliflar ilgari surilgan.

DXX Chegara qo'shinlarining shaxslarning davlat chegarasini kesib o'tishlarida sodir etishlari mumkin bo'lgan davlat chegarasini qo'riqlash sohasidagi huquqbuzarliklarni oldini olish va ularga qarshi kurash, ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish faoliyatini amalga oshirishda ishtirok etuvchi sohaviy bo'linmalari ularning huquqiy maqomi, faoliyatining xususiyatlari va amaliyot tahlilidan kelib chiqqan holda ikki guruhga ajratilgan:

*birinchi guruh* – bevosita shaxslarni, transport vositalarini va tovarlarni davlat chegarasi orqali o'tkazishni belgilangan o'tkazish punktlarida amalga oshiruvchi bo'linmalar;

*ikkinchi guruh* – davlat chegarasi orqali o'tkazish punktidan tashqari davlat chegarasini qo'riqlashni amalga oshiruvchi bo'linmalar.

Muallif AQSH, Rossiya va Qozog'iston tajribalarini o'rganish asosida ularning Chegara xizmatlari tarkibida ma'muriy huquqbuzarliklarni ko'rib chiqish funksiyasini bajaruvchi «*surishtiruv bo'linmalari*» tashkil etilganligiga e'tibor qaratib, mamlakatimizda ham davlat chegarasini qo'riqlash sohasidagi ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish faoliyatini muvofiqlashtiruvchi DXX Chegara qo'shinlari bo'linmalari tarkibida alohida tuzilma: «*Ma'muriy amaliyot bo'linmalari (guruhlari)*» faoliyatini yo'lga qo'yish zaruratini isbotlab bergan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi «**DXX Chegara qo'shinlarining ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish vakolatlari va faoliyatining bugungi holati**» tahliliga bag'ishlangan. Mazkur bobda DXX Chegara qo'shinlarining ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish amaliyotida yuzaga kelayotgan muammolar, ularning o'ziga xos xususiyatlari va yechimlari to'g'risida so'z yuritilgan.

Ushbu bobning birinchi paragrafi «*DXX Chegara qo'shinlari vakolatidagi ma'muriy huquqbuzarliklarning yuridik tavsifi*»ga bag'ishlangan bo'lib, unda Chegara qo'shinlari ish yurituviga doir ma'muriy huquqbuzarliklarning yuridik tavsifi, amaliyotda mazkur huquqbuzarliklarni rasmiylashtirish bo'yicha qonun hujjatlarini qo'llashda yuzaga kelayotgan muammolar va ularning yechimlari tadqiq etilgan.

MJtKning 196<sup>1</sup>, 196<sup>2</sup>-moddalariga ko'ra, DXX Chegara qo'shinlarining qonuniy talablarini bajarmaslik va ularning xizmat burchlarini bajarishlariga qarshilik ko'rsatish holatlarini rasmiylashtirishda qonun hujjatlarida huquqiy bo'shliqlar mavjud. Dissertant mazkur bo'shliqni bartaraf etishga qaratilgan bir qancha takliflarni ilgari surgan.

Jumladan, qilmishni MJtKning 196<sup>1</sup>, 196<sup>2</sup>-moddalarida belgilangan huquqbuzarlik sifatida malakalash uchun sodir etilgan xatti-harakat (harakatsizlik) aynan DXX Chegara qo'shinlari harbiy xizmatchisiga nisbatan qaratilgan bo'lishi lozim. Biroq, davlat chegarasini qo'riqlashda DXX Chegara qo'shinlaridan tashqari qonunchilik hujjatlariga muvofiq Ichki ishlar vazirligi, Mudofaa vazirligi va Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari (xodimlari) ham ishtirok etadi. Dissertant amaliyot materiallarini tahlil qilib, Rossiya, Moldova, Qozog'iston qonunchiligidagi mavjud tajribalarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish orqali shaxslarning mazkur harbiy xizmatchilar (xodimlar)ning qonuniy talablarini bajarimaslik va ularning xizmat burchlarini bajarishlariga qarshilik ko'rsatishdagi qilmishlarini ham ushbu moddalar bo'yicha malakalash imkonini berish uchun, MJtKning 196<sup>1</sup>, 196<sup>2</sup>-moddalarining nomlari va dispozitsiyalarini «*O'zbekiston Respublikasi Davlat chegarasini qo'riqlash bo'yicha xizmat vazifasini bajarayotgan harbiy xizmatchining (xodimning) qonuniy talablarini bajarimaslik yoki ularning xizmat burchlarini bajarishlariga qarshilik ko'rsatish*» sifatida belgilash bo'yicha takliflarni ilgari surgan.

Dissertatsiyada shaxslarning xatti-harakatlari (harakatsizligi)ni MJtKning 224-moddasi bo'yicha malakalashda, nafaqat ularning chegara zonasiga, shuningdek fuqarolarning kirishi va bo'lishiga vaqtincha cheklov belgilangan joylarga kirishi hamda ularda yashash qoidalarini buzishi balki, chegara zonasiga kirishi (undan chiqishi), undan o'tishi, u yerda bo'lishi (yashashi), harakatlanishi, xo'jalik faoliyatini va boshqa faoliyatni amalga oshirish tartibi va qoidalarini o'z ichiga olishi asoslantirilgan.

Muallif amaliyot materiallarini tahlil qilish asosida MJtKning 224-moddasi bo'yicha aniqlangan huquqbuzarlik ko'rsatkichi 2022-yilga nisbatan 2023-yilda deyarli uch barobarga oshganligini qayd etgan. Ya'ni, tadqiqotchining fikricha, ushbu ko'rsatkichning tegishli 362 tadan 912 taga ortganligi chegara rejimi qoidalariga rioya etilishini muntazam ravishda nazorat qilib borish zaruratini yuzaga keltiradi.

Dissertatsiyada olimlarning (E.Nadarin, Dj.Yuldashev) fikrlarini hamda xorij qonunchiligini (Ozarbayjon, Rossiya, Belarus) tahlil qilish orqali qonunchilik hujjatlaridagi mavjud kolliziyalarni bartaraf etish, shaxslarning chegara rejimini buzganliklaridagi barcha qilmishlari qamrab olinishini ta'minlash maqsadida, MJtK 224-moddasining nomlanishini «*Chegara zonasida chegara rejimini buzish*» sifatida va uning dispozitsiyasini «*Chegara zonasiga kirish (undan chiqish), undan o'tish, u yerda bo'lish (yashash), harakatlanish, xo'jalik faoliyatini hamda boshqa faoliyatni amalga oshirish qoidalarini buzish*» deb bayon etish bo'yicha xulosaga kelingan.

O'zbekiston Respublikasi davlat chegarasi orqali o'tkazish punktlaridagi rejimni buzganlik uchun javobgarlikni belgilovchi qonun normasi (MJtKning 224<sup>1</sup>-m. 1-q.) tahlili, uning dispozitsiyasida o'tkazish punktlaridagi rejimni ta'minlashga qaratilgan barcha qilmishlar to'liq qamrab olinmaganligini ko'rsatadi. Jumladan, mazkur modda bo'yicha faqatgina shaxslar va transport vositalarining o'tkazish punktlarida bo'lishi hamda harakatlanishi tartibiga rioya etmaslik, shaxslarning o'tkazish punktlaridagi taqiqlangan joylarga va transport vositalariga g'ayriqonuniy kirishi bilan bog'liq harakatlari bo'yicha javobgarlik nazarda tutilgan.

Tadqiqot natijalari esa, davlat chegarasi orqali o'tkazish punktlaridagi rejim o'zida nafaqat yuqorida keltirilgan ijtimoiy munosabatlar bilan bog'liq harakatlar, balki o'tkazish punkti orqali *tovarlar, boshqa mol-mulk va hayvonlar olib kirilishi, turishi va olib chiqilishi, ushbu hududlarda xo'jalik faoliyati va boshqa faoliyatni amalga oshirish kabi qoidalarni* ham o'z ichiga olishini ko'rsatmoqda.

DXX Chegara qo'shinlarining ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish amaliyotida MJtKning 224<sup>1</sup>-moddasi dispozitsiyasida keltirilmagan, ya'ni shaxslarning tovarlar, boshqa mol-mulk va hayvonlarni olib kirishi, turish va olib chiqishi, ushbu hududlarda xo'jalik faoliyati va boshqa faoliyatni amalga oshirishi kabi harakatlari ham mazkur modda bilan malakalanayotganligi ushbu ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarning kelgusida MJtKning 271-moddasi tartibida bekor bo'lishiga olib kelishi mumkinligi asoslantirilgan. Dissertant xorij mamlakatlari (Rossiya, Belarus, Moldova, Qozog'iston) tajribalarini inobatga olib, MJtKning 224<sup>1</sup>-moddasi dispozitsiyasida yuqoridagi qilmishlarning barchasini qamrab olish zarur degan xulosaga kelgan.

Muallifning fikricha, «O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi to'g'risida»gi qonunning 59-moddasida shaxslarning va transport vositalarining o'tkazish punktlarida bo'lish hamda harakatlanish tartibiga rioya etmaganligi, shaxslarning o'tkazish punktlaridagi kirish cheklangan joylarga va transport vositalariga g'ayriqonuniy kirishi *o'tkazish punktlaridagi rejimni buzish* deb baholanganligi qonunning 53-moddasi 3-qismida keltirilgan qoidalar bilan ziddiyatni yuzaga keltirgan hamda ularni mazkur norma talablariga muvofiqlashtirish lozim.

Ikkinchi bobning «*DXX Chegara qo'shinlarining ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish amaliyoti tadqiqi*» deb nomlangan ikkinchi paragrafida Chegara qo'shinlarining ish yurituviga oid ma'muriy huquqbuzarliklarni rasmiylashtirishda yuzaga kelayotgan muammolar, yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar va ularni bartaraf etish yo'llari haqida so'z borgan.

Davlat chegarasini qo'riqlash bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarni samarali tartibga solish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir. Bunda, avvalo davlat chegarasida va chegaraoldi hududlarda sodir etilishi mumkin bo'lgan huquqbuzarliklar profilaktikasiga alohida e'tibor qaratish, ularga qarshi kurashishning ma'muriy-huquqiy vositalarini kuchaytirish talab etiladi.

Dissertatsiyada davlat chegarasi rejimi, chegara rejimi va davlat chegarasi orqali o'tkazish punktlari rejimiga rioya etilishi ustidan nazoratni kuchaytirish va bu turdagi huquqbuzarliklarga qarshi samarali kurashishni tashkil etish maqsadida, «*Davlat chegarasini qo'riqlash va himoya qilish bilan bog'liq huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki mazkur turdagi huquqbuzarliklarga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida*»gi Hukumat qarori ishlab chiqilishi va qabul qilinishi lozimligi isbotlangan hamda ushbu hujjat loyihasi dissertatsiya ishiga ilova qilingan.

MJtKning 224<sup>1</sup>-moddasi uchinchi va to'rtinchi qismlariga ko'ra, chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxs davlat chegarasi orqali o'tkazish punktlaridagi rejimni buzganligi uchun tayinlangan jarimani to'lamaganligi hamda mazkur huquqbuzarlikni bir yil davomida takroran sodir etganligi uchun O'zbekiston Respublikasi hududidan ma'muriy tarzda chiqarib yuboriladi. Biroq,

amaliyot natijalari tahliliga ko‘ra, chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxsga nisbatan MJtKning 224<sup>1</sup>-moddasi uchinchi va to‘rtinchi qismlari bo‘yicha javobgarlik choralari qo‘llanilmayapti.

Ushbu holatlarning kelib chiqish sabablaridan biri sifatida, DXX Chegara qo‘shinlari chegara nazorati harbiy xizmatchilari tomonidan davlat chegarasida harakatlanayotgan shaxslarni o‘tkazish punktlari orqali o‘tkazishlari davomida, shaxslarni O‘zbekiston Respublikasiga belgilangan tartibda kirib kelganligini belgilash va shaxsiga oid hujjatlarini tekshirish bilan birga, dissertant ularning ilgari mazkur turdagi ma‘muriy huquqbuzarlikni sodir etganligi uchun tayinlangan ma‘muriy jarimani to‘lamaganlik faktini tezkorlik bilan (jismoniy shaxslarni o‘tkazish punktlari orqali o‘tkazish uchun belgilangan muddat) aniqlash imkoniyatining mavjud emasligini keltirib o‘tadi.

Muallif chegara nazorati bo‘linmalari tomonidan shaxslarning davlat chegarasini kesib o‘tish huquqini beruvchi hujjatlarini tekshirish bo‘yicha qo‘llaniladigan dasturiy ta‘minotiga, davlat chegarasini qo‘riqlash sohasidagi ma‘muriy huquqbuzarliklarni sodir etganliklari uchun belgilangan ma‘muriy jarimani to‘lamagan shaxslarning ro‘yxatini shakllantiradigan dasturiy ta‘minot yaratish orqali ushbu muammoni hal etish imkoniyati mavjud deb hisoblaydi.

Dissertant xorij olimlarining fikrlarini hamda hozirgi kundagi ma‘muriy amaliyotni tadqiq qilgan holda, DXX Chegara qo‘shinlarining ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritish faoliyatini quyidagi bosqichlardan iborat ekanligini ta‘kidlaydi: 1) dastlabki bosqich; 2) asosiy bosqich; 3) hujjatlarni rasmiylashtirish bosqichi; 4) yakunlovchi bosqich.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **«DXX Chegara qo‘shinlarining ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritish faoliyatida ma‘muriy majburlov usullarini qo‘llash amaliyoti tahlili»** deb nomlangan bo‘lib, unda DXX Chegara qo‘shinlarining o‘z ish yurituviga doir ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritishda qo‘llaniladigan ma‘muriy majburlov usullarining mohiyati, turlari va o‘ziga xos jihatlari tadqiq etilgan.

Ushbu bobning birinchi paragrafi *«DXX Chegara qo‘shinlari tomonidan ma‘muriy oldini olish choralari qo‘llash amaliyoti tahlili»*ga bag‘ishlangan bo‘lib, unda DXX Chegara qo‘shinlari harbiy xizmatchilari tomonidan qo‘llaniladigan ma‘muriy oldini olish choralari va ularni qo‘llash asoslari haqida so‘z borib, mazkur choralarni qo‘llash tartibi va asoslarini takomillashtirish bo‘yicha qonun hujjatlari normalaridan kelib chiqqan holda tavsiyalar berib o‘tilgan.

DXX Chegara qo‘shinlari harbiy xizmatchilari ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritish faoliyatida hujjatlarni tekshirish, ma‘muriy nazorat, shaxsni ko‘rikdan o‘tkazish va ashyolarni ko‘zdan kechirish, ashyolar va hujjatlarni olib qo‘yish kabi ma‘muriy oldini olish choralari; ma‘muriy yo‘l bilan ushlab turish, transport vositasini ushlab turish, jismoniy kuch, maxsus vositalar va o‘qotar qurolni qo‘llash kabi ma‘muriy cheklash choralari; jarima tariqasidagi ma‘muriy jazo chorasini qo‘llaydi.

Ma'muriy qonunchilikda «shaxsni ko'rikdan o'tkazish va ashyolarni ko'zdan kechirish» tushunchalariga to'xtalib o'tilmagan. Bu esa, ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish sifatiga ham ma'lum darajada ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi.

Tadqiqotchi tomonidan huquqbuzarlik sodir etish quroli yoki ma'muriy huquqbuzarlik predmetini aniqlash va olib qo'yish uchun, qonun hujjatlari bilan vakolat berilgan shaxslar tomonidan majburiy tarzda shaxslarning tanasini, shuningdek uning kiyim-boshi hamda boshqa ashyolarini ularning butunligiga (tuzilishiga) zarar yetkazmagan holda tashqi tekshirishdan iborat bo'lgan harakatlarni «shaxsni ko'rikdan o'tkazish va shaxsda bo'lgan ashyolarni ko'zdan kechirish» sifatida baholab, uni MJtKning 289-moddasiga alohida norma sifatida kiritish taklifini ilgari surgan.

«O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati to'g'risida»gi qonunga asosan DXX harbiy xizmatchilariga huquqbuzarlikni bevosita sodir etish quroli yoki predmeti, shuningdek muomalada bo'lishi taqiqlangan yoki cheklangan boshqa narsalarni olib qo'yish vakolati berilmaganligi sababli, qonunga ushbu vakolatni harbiy xizmatchilarga taqdim etish bo'yicha tegishli qo'shimchalar kiritilishi lozimligi asoslantirilgan.

Amaliyot tahlillari shuni ko'rsatmoqdaki, DXX Chegara qo'shinlari harbiy xizmatchilarining jangovar (operativ) xizmat faoliyati aholi maskanlaridan va ma'muriy hududiy markazlardan olisda olib borilishi sababli, shaxsni ko'rikdan o'tkazish va ashyolarni ko'zdan kechirish ikki nafar xolis ishtirokida amalga oshirilishi (ashyo va hujjatlarni olib qo'yish xolislarsiz) bo'yicha qonun hujjatining talabini ta'minlashga imkon bermayapti.

Dissertant tomonidan xorij qonunchiligi (Rossiya, Moldova, Belarus) va amaliyot tahlillari hamda soha mutaxassislari bilan olib borilgan anketa so'rov natijalariga muvofiq (respondentlarning 79,1 foizi taklifni ma'qullagan), ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yurituvchi organlar mas'ul shaxslari tomonidan shaxslarni shaxsiy ko'rikdan o'tkazish ikkita xolis ishtirok etgan holda yoxud videoyozuv qo'llash orqali amalga oshirilishi bo'yicha MJtKga qo'shimcha kiritish orqali mazkur sohadagi qonunchilikni takomillashtirish zarurati isbotlangan.

MJtKning 286–291-moddalariga asosan, ma'muriy yo'l bilan ushlab turish to'g'risida bayonnoma tuzishda, shaxsni ko'rikdan o'tkazish va ashyolarni ko'zdan kechirishda, ashyolar va hujjatlarni olib qo'yishda, transport vositalarini ushlab turish va ko'rikdan o'tkazishda, transport vositalari haydovchilarining alkogolli ichimliklar, giyohvandlik vositalari ta'siridan yoki o'zgacha tarzda mast holatda ekanligini aniqlashda xolislar ishtirok etishi lozim.

Muallif ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunchilikda «xolis» tushunchasining mavjud emasligi va uning huquqiy maqomi belgilab berilmaganligi ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish sifatiga, ish yuritish davomida rasmiylashtiriladigan protsessual hujjatlarning xolisligi va maqbulligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, degan xulosaga kelgan. Shu bois, muallif tomonidan MJtKni «Xolis» deb nomlanuvchi alohida norma bilan to'ldirish taklif etilgan.

Mazkur bobning «DXX Chegara qo'shinlari tomonidan ma'muriy cheklash choralari qo'llash amaliyotida yuzaga kelayotgan muammolar va ularning yechimlari» deb nomlangan ikkinchi paragrafida DXX Chegara qo'shinlari tomonidan qo'llaniladigan ma'muriy cheklash choralari tashkiliy-huquqiy jihatlari, uni qo'llash asoslari va tartibi hamda mazkur sohadagi qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish zarurati keltirib o'tilgan.

Qonunchilik ma'muriy yo'l bilan ushlab turishni jismoniy shaxsni qisqa muddatga erkini cheklashdan iborat ekanligini tushuntirish bilan birga, uning ma'muriy huquqbuzarlikni to'xtatish, huquqbuzarning shaxsini aniqlash, ishlarning o'z vaqtida va to'g'ri ko'rib chiqilishini ta'minlash va ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlar yuzasidan chiqarilgan qarorlarni ijro etish maqsadidagina qo'llanilishini nazarda tutadi.

Biroq, mazkur tushunchaning MJtKda keltirilmaganligi uni qo'llovchilar tomonidan qonun hujjatlarini o'zlarining bilim va ko'nikmalaridan kelib chiqqan holda talqin qilishlariga sharoit yaratishini inobatga olib, tadqiqotchi tomonidan «ma'muriy yo'l bilan ushlab turish» tushunchasi bo'yicha mualliflik ta'rifi ishlab chiqilib, uni MJtKda aks ettirish zarurati asoslantirilgan.

O'zbekiston Respublikasi «Konsullik munosabatlari to'g'risida»gi 1963-yil 24-aprelda imzolangan Vena Konvensiyasini ratifikatsiya qilgan bo'lib, mazkur Konvensiyaning 36-moddasiga muvofiq, ishtirokchi davlatlar o'z vakolatli organlari tomonidan mazkur Konvensiya ishtirokchi davlatlari fuqarolarining sud tekshiruvlari uchun qamoqqa olinishi, biror-bir sabablar bilan *ushlab turilganligi* xususida ushlangan shaxsning talabiga asosan, uning o'z fuqarolik davlatiga tegishli konsullik (diplomatik) muassasasini zudlik bilan xabardor qilish majburiyatini olganlar.

Biroq, mazkur xalqaro hujjatda nazarda tutilgan norma MJtKda belgilanmaganligi sababli, dissertant mazkur kodeksning 286-moddasi chet el fuqarosi ma'muriy yo'l bilan ushlab turilgan holatlarda, ushbu shaxsning talabiga muvofiq, uning fuqaroligiga qarab, ma'muriy yo'l bilan ushlab turilganligi xususida tegishli konsullik yoki diplomatik muassasalarni zudlik bilan xabardor qilishni nazarda tutuvchi norma bilan to'ldirish zaruratini asoslagan.

Bugungi kunda DXX Chegara qo'shinlarining harbiy xizmatchilari davlat chegarasini qo'riqlash davomida, fuqarolar tomonidan ov qilish va baliq ovlash qoidalarini buzish (MJtKning 90-m.) huquqbuzarliklari aniqlangan holatlarda shaxslarni ma'muriy ushlab turishni amalga oshirmoqdalar. Vaholanki, qonunchilik DXX Chegara qo'shinlariga ushbu turdagi qilmishlar bo'yicha shaxslarni ushlab turish vakolatini taqdim etmagan. Shu bois, dissertant MJtKga ma'muriy yo'l bilan ushlab turishning qonuniy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan qo'shimcha kiritilishi lozim, degan xulosaga kelgan.

Ma'muriy yo'l bilan ushlab turish talablari MJtKning 286–288-moddalarida keltirilgan bo'lib, biroq mazkur kodeks va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda ushlab turish tartibi, ushlanganlarni saqlash qoidalari, ushlab turish joylariga qo'yiladigan talablar, ushlab turilgan shaxsning huquq va majburiyatlari va boshqa masalalar belgilab berilmagan.

Ilg'or xorij tajribasi (Rossiya, Moldova, Qozog'iston) hamda amaliyot natijalariga muvofiq, tadqiqotchi tomonidan MJtK «*Ma'muriy yo'l bilan ushlab turish joyi va tartibi*» deb nomlanuvchi norma bilan to'ldirilishi lozimligi isbotlangan.

Shuningdek, Hukumat qarori bilan tasdiqlanadigan «*Ma'muriy huquqbuzarlik sodir etganligi uchun ushlanganlarni saqlash, ularni ovqatlantirish va tibbiy ta'minotini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom*»ni ishlab chiqish lozimligi asoslantirilgan hamda ushbu hujjat loyihasi dissertatsiya ishiga ilova qilingan.

Ushbu bobning «*DXX Chegara qo'shinlarining ma'muriy jazo qo'llash borasidagi faoliyatining tahlili*» deb nomlangan uchinchi paragrafida Chegara qo'shinlari ish yurituviga oid ma'muriy huquqbuzarliklar uchun belgilangan ma'muriy jazo choralari yoritilib, ularni qo'llashning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha takliflar ilgari surilgan.

2022-yil boshidan 2024-yil 31-dekabrga qadar Chegara qo'shinlari mansabdor shaxslari tomonidan **21 579** ta ma'muriy ish ko'rib chiqilib, **52,1** mlrd. so'm miqdordagi ma'muriy jarima tariqasidagi jazolar tayinlangan. Mazkur summaning hozirgi kunga qadar **21,01** mlrd. so'm qismi undirilgan bo'lib (imtiyozli chegirma (50, 70 foizlik) hisobga olinmaganda), 11,46 mlrd. so'm pul mablag'i hozirgi kunga qadar undirilmasdan kelinmoqda.

O'zbekiston ratifikatsiya qilgan xalqaro hujjatlarda, a'zo davlatlar zimmasiga ma'muriy jarimalarni undirish majburiyati yuklatilmaganligi sababli yuqoridagi kabi muammoli holatlar yuzaga kelmoqda. Shu sababli muallifning fikricha, a'zo davlatlar zimmasiga chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga huquqbuzarlik sodir etganligi uchun tayinlangan ma'muriy jarimalarni majburiy ravishda undirilishini ta'minlash majburiyatini yuklaydigan xalqaro huquqiy hujjat ishlab chiqilishi lozim.

Bundan tashqari, tadqiqotchi chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni ularga nisbatan tayinlangan jarimalar undirilishini ta'minlash maqsadida, jarima summasi to'lanishi amalga oshirilmagunga qadar, O'zbekiston hududiga kirishi va O'zbekiston Respublikasidan chiqishi taqiqlanishi bo'yicha tegishli normativ-huquqiy hujjatlarga qo'shimcha kiritilishi lozim, degan xulosaga kelgan.

Davlat chegarasi orqali o'tkazish punktlarida DXX Chegara qo'shinlari chegara nazorati bo'linmalari harbiy xizmatchilari tomonidan 224<sup>1</sup>-moddasi birinchi va ikkinchi qismlarida, 225-moddasi birinchi – uchinchi qismlarida nazarda tutilgan huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun tayinlangan jarimalarni to'lamagan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar aniqlanayotgan bo'lib, MJtKning 224<sup>1</sup>-moddasi uchinchi va to'rtinchi qismlari hamda 225-moddasi yettinchi va sakkizinchi qismlarida nazarda tutilgan norma talablari ijrosini ta'minlash maqsadida, ularga nisbatan O'zbekiston Respublikasi hududidan ma'muriy tarzda chiqarib yuborish jazosini qo'llash masalasi ko'rib chiqilishi uchun rasmiylashtirilgan protsessual hujjatlar jinoyat ishlari bo'yicha tegishli tuman (shahar) sudlariga yuborilmoqda.

Mazkur holatlarda, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning harakatlarida keltirilgan huquqbuzarliklarning aniqlanishi dam olish va bayram kunlariga to'g'ri kelgan holatlarda mazkur toifadagi shaxslarni saqlash, ularning ovqatlanishi va tibbiy ta'minoti bilan bog'liq muammolar yuzaga kelmoqda.

Bundan tashqari, davlat chegarasi orqali o'tkazish punktlari tuman (shahar) markazlaridan chekka hududlarda joylashganligi, mazkur huquqbuzarliklarni sodir etgan shaxslarning ularga nisbatan tegishli chora ko'rilishini ta'minlash uchun tuman (shahar) markazlarida joylashgan sud organlariga olib borish va tegishli qarorlar rasmiylashtirilgunga qadar, ularning ortiqcha vaqt va pul mablag'lari sarflashlariga, bu o'z navbatida O'zbekiston Respublikasining davlat idoralariga nisbatan salbiy fikrlarning paydo bo'lishiga sharoit yaratayotganligi sababli, tadqiqotchi keltirilgan huquqbuzarliklar davlat chegarasi orqali o'tkazish punktlarida aniqlangan taqdirda, DXX Chegara qo'shinlariga O'zbekiston Respublikasi hududidan ma'muriy tarzda chiqarib yuborish jazosini qo'llash vakolatini taqdim etishni lozim deb hisoblagan.

Dissertatsiyaning to'rtinchi bobi **«DXX Chegara qo'shinlarining ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish faoliyatini takomillashtirish istiqbollari»** deb nomlangan bo'lib, unda davlat chegarasini qo'riqlash sohasidagi huquqbuzarliklarning oldini olish va ularga qarshi kurash, chegara idoralarining ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish sohasida ilg'or tajribalarga ega ayrim xorijiy davlatlar qonunchiligi qiyosiy tahlil qilingan, shuningdek DXX Chegara qo'shinlarining ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish faoliyatining qonunchilik asoslarini, shuningdek tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan.

Mazkur bobning *«Davlat chegarasini qo'riqlash sohasidagi ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish borasida xorij mamlakatlari tajribasi tahlili»* deb nomlangan birinchi paragrafida xorij davlatlari chegara idoralarining ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish sohasidagi qonunchilik asoslarini qiyosiy tadqiq etish asosida milliy qonunchiligimizni takomillashtirish zarurati tahlil qilingan.

Ishda ushbu sohada xorijiy mamlakatlarning qonunchiligini o'rganish uchun ular shartli ravishda quyidagi guruhlariga ajratilgan:

- 1) anglo-sakson huquq tizimidagi davlatlar;
- 2) Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlar;
- 3) MDHga a'zo davlatlar.

AQSH, Avstraliya va Buyuk Britaniya (anglo-sakson huquq tizimidagi davlatlar), Germaniya, Fransiya, Ispaniya, Norvegiya (Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlar) davlatlari qonunchiligining tahlili asosida DXX Chegara qo'shinlariga chegaraoldi hududlarida jamoat tartibiga qarshi qaratilgan huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ham yuritish vakolatini taqdim etish maqsadga muvofiq, degan xulosaga kelingan.

Dissertant tomonidan O'zbekiston Respublikasi davlat chegarasini qo'riqlash usullari hamda tizimiga yaqin bo'lgan MDH davlatlari (Rossiya, Ukraina, Moldova, Ozarbayjon, Belarus, Qozog'iston, Qirg'iz Respublikasi, Tojikiston) chegara idoralarining ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish faoliyati tahlil qilinib, MJtKda baliq ovlash, ov qilish, tabiat va suv resurslarini muhofaza qilish bilan bog'liq qoidalarni buzganlik uchun belgilangan huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish vakolatini DXX Chegara qo'shinlariga taqdim etish bo'yicha tegishli qonun loyihasi ishlab chiqilishi lozim degan xulosaga kelingan.

Mazkur bobning ikkinchi paragrafi «DXX Chegara qo'shinlarining ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish faoliyatini takomillashtirish yo'llari» deb nomlangan bo'lib, unda DXX Chegara qo'shinlarining bu boradagi faoliyatini belgilab beruvchi qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish asoslab berilgan.

Chunonchi, qonunchilik hujjatlari tahliliga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi ma'muriy qonunchiligi bo'yicha «chegara rejimi»ni buzganlik uchun ma'muriy javobgarlik mavjud bo'lib, biroq «davlat chegarasi rejimi»ni buzganlik yuzasidan ma'muriy javobgarlikni belgilab beruvchi norma mavjud emas. Zero, «O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi to'g'risida»gi qonunning 46-moddasi aynan davlat chegarasi rejimi buzilishiga doir munosabatlarga bag'ishlangan.

Xorij davlatlarining (Ozarbayjon, Moldova, Qozog'iston, Rossiya) ma'muriy qonunchilik bo'yicha tajribasini respublikamiz qonunchiligiga implementatsiya qilish orqali davlat chegarasi rejimini buzganlik bo'yicha ma'muriy javobgarlikni belgilashni ta'minlash maqsadida, MJtK alohida norma bilan to'ldirilishi lozimligi isbotlangan.

Shu bilan birga, chegaraoldi hududlarda ov qilish va baliq ovlash bilan bog'liq qoidalarni buzgan, shuningdek O'zbekiston Respublikasining Qizil kitobiga kiritilgan o'simliklarni o'zboshimchalik bilan yig'gan shaxslarning DXX Chegara qo'shinlari tomonidan aniqlanishi va ularga nisbatan tegishli chora ko'rilishini ta'minlashda bu boradagi ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish faoliyatining samarali va tezkorlik bilan hal etilishiga o'zining salbiy ta'sirini o'tkazmoqda. Shu munosabat bilan, dissertant tomonidan DXX Chegara qo'shinlarining ushbu sohadagi faoliyatini samarali tashkillashtirish maqsadida, MJtKning 81-moddasi, 90-moddasi birinchi qismida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklarni ko'rib chiqish vakolatini Chegara qo'shinlariga taqdim etish zarurati isbotlangan.

MJtKning 248<sup>2</sup>-moddasiga asosan, mazkur kodeksning 225-moddasi birinchi–uchinchi qismlarida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklarni ko'rib chiqish vakolati DXX Chegara qo'shinlari bo'linmalari boshliqlari va ularning o'rinbosarlari vakolatiga taqdim etilganligi sababli, mazkur huquqbuzarliklarni sodir etgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning ayrim holatlarda ovoragarchiliklariga hamda ortiqcha vaqt sarflashlariga olib kelmoqda.

Chunonchi, davlat chegarasi orqali o'tkazish punktlariga chegara xizmatini olib borish uchun har doim ham chegara nazorati bo'linmasi boshlig'i yoki uning o'rinbosari tayinlanmaydi.

Shu sababli, ayrim holatlarda chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning MJtKning 225-moddasi birinchi – uchinchi qismlarida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklarni sodir etganligi aniqlangan holatlarda, ularga nisbatan tegishli jazo chorasini ko'rish maqsadida, o'tkazish punktlariga chegara nazorati bo'linmasi boshlig'i yoki uning o'rinbosarining yetib kelishi orqali protsessual hujjatlar rasmiylashtirilishi yo'lga qo'yilmoqda. Bu esa, yuqorida ta'kidlanganidek, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning hamda chegara nazorati bo'linmalari harbiy xizmatchilarining ovoragarchiliklariga sabab bo'layotganligi sababli, mazkur huquqbuzarliklarni ko'rib chiqish vakolatini *chegara naryadlari smena kattalariga* ham taqdim etish lozimligi asoslantirilgan.

## XULOSA

DXX Chegara qo‘shinlarining ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritish faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi ilmiy xulosalar, taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqilgan:

### I. Ilmiy-nazariy xulosalar:

1. DXX Chegara qo‘shinlarining ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritish faoliyati bilan bog‘liq nazariy qarashlar, xalqaro hamda milliy qonunchilik normalari va ularni qo‘llash amaliyoti natijalari tahlili asosida quyidagi tushunchalarga nisbatan mualliflik ta‘riflari shakllantirildi va ularni milliy qonunchilikka kiritish zarurati asoslantirildi:

*«Davlat chegarasini qo‘riqlash sohasidagi ma‘muriy huquqbuzarliklar – qonunchilikka binoan ma‘muriy javobgarlikka tortish nazarda tutilgan, davlat chegarasini qo‘riqlash sohasidagi ijtimoiy munosabatlarga bevosita zarar yetkazadigan, aybli, g‘ayrihuquqiy qilmishlar tushuniladi»;*

*«DXX Chegara qo‘shinlarining ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritish faoliyati – ma‘muriy protsess tarkibidagi ma‘muriy yurisdiksiyaviy faoliyatning bir qismi bo‘lib, ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq, DXX Chegara qo‘shinlari mansabdor shaxslari tomonidan ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni qo‘zg‘atish, ish bo‘yicha dalillar to‘plash, protsessual hujjatlarni rasmiylashtirish, ish yuritishni ta‘minlash choralari qo‘llash, ularni ko‘rib chiqish, qabul qilingan qarorlarni ijro etishgacha bo‘lgan harakatlar majmuidan iborat»;*

*«Shaxsni ko‘rikdan o‘tkazish va shaxsda bo‘lgan ashyolarni ko‘zdan kechirish – zarur hollarda huquqbuzarlik sodir etish quroli yoki ma‘muriy huquqbuzarlik predmetini aniqlash va olib qo‘yish maqsadida, qonun hujjatlari bilan vakolat berilgan shaxslar tomonidan majburiy yoki ixtiyoriy tarzda shaxslarning tanasini, shuningdek uning kiyim-boshi hamda boshqa ashyolarini ularning butunligiga (tuzilishiga) zarar yetkazmagan holda tashqi ko‘zdan kechirishdan iborat»;*

*«Ma‘muriy yo‘l bilan ushlab turish – boshqa ta‘sir ko‘rsatish choralari qo‘llanib bo‘linganidan keyin ma‘muriy huquqbuzarlikni to‘xtatish va holatga aniqlik kiritish, huquqbuzarning shaxsini aniqlash, basharti bayonnoma tuzish zarur bo‘lib, uni huquqbuzarlik sodir etilgan joyning o‘zida tuzish imkoni bo‘lmagan taqdirda ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risida bayonnoma tuzish, ishlarning o‘z vaqtida va to‘laqonli ko‘rib chiqilishini ta‘minlash va ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlar yuzasidan chiqarilgan qarorlarni ijro etish maqsadida, ma‘muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxsni qisqa muddatga ozodligini cheklashdan iborat».*

2. MJtKning 196<sup>1</sup>, 196<sup>2</sup>, 224, 224<sup>1</sup>, 224<sup>2</sup>-moddalarida ko‘zda tutilgan huquqbuzarliklar davlat chegarasini qo‘riqlash sohasidagi ma‘muriy huquqbuzarliklar sifatida belgilandi.

3. DXX Chegara qo‘shinlarining ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritish faoliyatining quyidagi o‘ziga xos xususiyatlari aniqlandi:

*birinchidan*, DXX Chegara qo‘shinlarining ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritish faoliyatining huquqiy asoslari nafaqat qonun hujjatlari, balki DXX ichki idoraviy hujjatlari bilan ham tartibga solinganligi;

*ikkinchidan*, DXX Chegara qo‘shinlari mansabdor shaxslariga MJtK moddalarining sanksiyalarida to‘g‘ridan-to‘g‘ri keltirib o‘tilgan jazo chorasi, ya‘ni shaxslarni O‘zbekiston Respublikasi hududidan ma‘muriy tarzda chiqarib yuborish jazosini qo‘llash bo‘yicha tegishli hujjatlarni rasmiylashtirish orqali jinoyat ishlari bo‘yicha tegishli sudlarga taqdim etish vakolatining belgilab berilganligi;

*uchinchidan*, DXX Chegara qo‘shinlari mansabdor shaxslari tomonidan aksariyat xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar tomonidan sodir etilgan ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarning ko‘rib chiqilishi;

*to‘rtinchidan*, qonun hujjatlari bilan ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritish faoliyatida ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiquvchi DXX Chegara qo‘shinlari harbiy xizmatchilarining doirasi aniq belgilanmaganligi.

4. DXX Chegara qo‘shinlarining ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritish faoliyatini tor va keng ma‘noda tushunish lozim:

*tor ma‘noda*: DXX Chegara qo‘shinlari harbiy xizmatchilari tomonidan ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritish bo‘yicha MJtKda belgilangan protsessual harakatlarni amalga oshirish;

*keng ma‘noda*: DXX Chegara qo‘shinlari harbiy xizmatchilari tomonidan davlat chegarasini qo‘riqlash vazifasini amalga oshirish jarayonida aniqlanadigan ma‘muriy huquqbuzarliklar bo‘yicha mazkur huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritish yuzasidan ma‘muriy protsessual harakatlarni amalga oshirishda qo‘llaniladigan tadbirlar majmui.

5. DXX Chegara qo‘shinlarining davlat chegarasini qo‘riqlash sohasidagi huquqbuzarliklarning oldini olish va ularga barham berish, shuningdek ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yurituvchi tarkibiy tuzilmalarini ularning huquqiy maqomi, faoliyatining asosiy yo‘nalishlari va amaliyot tahlili natijalaridan kelib chiqqan holda quyidagi ikki guruhga ajratish maqsadga muvofiq:

*birinchi guruh* – shaxslarni, transport vositalarini va tovarlarni davlat chegarasi orqali o‘tkazish punktlarida o‘tkazilishini ta‘minlovchi bo‘linmalar;

*ikkinchi guruh* – davlat chegarasi orqali o‘tkazish punktlaridan tashqari davlat chegarasining qolgan qismini qo‘riqlash vazifasini amalga oshiruvchi bo‘linmalar.

6. G‘ayrihuquqiy harakat yoki harakatsizlikni ma‘muriy huquqbuzarlik deb hisoblash uchun zaruriy belgilari yig‘indisi bo‘lgan huquqbuzarlik tarkibining tushunchasi va mohiyati, shu jumladan davlat chegarasini qo‘riqlash sohasidagi MJtKning 196<sup>1</sup>, 196<sup>2</sup>, 224, 224<sup>1</sup>, 224<sup>2</sup>-moddalarida nazarda tutilgan qilmishlarning yuridik tavsifi yoritib berildi.

7. Davlat chegarasi rejimi va chegara rejimi doirasidagi chegara zonasi va chegara mintaqasining o‘zaro farqli jihatlari va ularning alohida belgilari tadqiq etilib, chegara rejimining chegara zonasiga kirish (undan chiqish), undan o‘tish, u yerda bo‘lish (yashash), harakatlanish, xo‘jalik faoliyatini hamda boshqa faoliyatni yuritish tartibi va qoidalarini o‘z ichiga olishi isbotlandi.

8. DXX Chegara qo‘shinlarining ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritish faoliyatini quyidagi bosqichlarga bo‘lish mumkin: 1) dastlabki bosqich; 2) asosiy bosqich; 3) hujjatlarni rasmiylashtirish bosqichi; 4) yakunlovchi bosqich.

9. DXX Chegara qo‘shinlari harbiy xizmatchilar tomonidan ma‘muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarga nisbatan qo‘llaniladigan ma‘muriy majburlov choralari qo‘llash tartibi va asoslariga ko‘ra, quyidagi xususiyatlarga ega:

*birinchidan*, DXX Chegara qo‘shinlari tomonidan ma‘muriy majburlov choralari qo‘llashning huquqiy asoslarini qonunchilik hujjatlari va DXX ichki idoraviy hujjatlari (nizom, yo‘riqnoma) bilan tartibga solingan;

*ikkinchidan*, ma‘muriy majburlov choralari hisoblangan jismoniy kuch ishlatish va maxsus vositalaridan foydalanish kabi ta‘sir choralari qo‘llashning alohida tartibotlari mavjud;

*uchinchidan*, ma‘muriy majburlov choralari qo‘llash huquqiga ega DXX Chegara qo‘shinlari harbiy xizmatchilari o‘z vakolatlarini amalga oshirishda qonunchilik hujjatlari bilan ularning huquqiy himoyasi kafolatlangan.

## **II. Normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirishga qaratilgan takliflar:**

1. O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga quyidagi mazmundagi o‘zgartirish va qo‘shimchalarni kiritish taklif etiladi:

1) 29<sup>1</sup>-moddasini quyidagi mazmundagi ikkinchi qism bilan to‘ldirish hamda ikkinchi va uchinchi qismlarini tegishincha uchinchi va to‘rtinchi qismlar deb hisoblash:

***«Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning mazkur Kodeksning 224<sup>1</sup>-moddasi uchinchi va to‘rtinchi qismlari, 224<sup>3</sup>-moddasi uchinchi qismi hamda 225-moddasi yettinchi va sakkizinchi qismlarida nazarda tutilgan ma‘muriy huquqbuzarliklarni sodir etganliklari davlat chegarasi orqali o‘tkazish punktlarida aniqlangan taqdirda, O‘zbekiston Respublikasi hududidan ma‘muriy tarzda chiqarib yuborish jazosi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo‘shinlarining mansabdor shaxslari tomonidan qo‘llanilishi mumkin»;***

2) 196<sup>1</sup>-moddasining nomlanishi va dispozitsiyasini quyidagi tahrirda bayon etish:

***«196<sup>1</sup>-modda. O‘zbekiston Respublikasining Davlat chegarasini qo‘riqlash bo‘yicha xizmat vazifasini bajarayotgan harbiy xizmatchining (xodimning) qonuniy talablarini bajarmaslik.***

***O‘zbekiston Respublikasining Davlat chegarasini qo‘riqlash bo‘yicha xizmat vazifasini bajarayotgan harbiy xizmatchining (xodimning) huquqbuzarliklarni to‘xtatish, hujjatlarni tekshirish uchun taqdim etish, ko‘rsatilgan muddatda O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo‘shinlari bo‘linmalariga (huquqni muhofaza qiluvchi organlarga) borish yoki ushbu bo‘linmalarda hozir bo‘lish to‘g‘risidagi qonuniy talablarini uzrli sabablarsiz bajarmaslik, transport vositasini to‘xtatish, jabrlanuvchilarga yordam ko‘rsatish haqidagi qonuniy talablarini bajarmaslik yoxud mazkur harbiy xizmatchining (xodimning) qonuniy talablariga boshqacha tarzda bo‘ysunmaslik, xuddi shuningdek Davlat chegarasini qo‘riqlash vazifalarini amalga oshirayotgan boshqa shaxslarning qonuniy talablarini bajarmaslik»;***

3) 196<sup>2</sup>-moddasining nomlanishi va dispozitsiyasini quyidagi tahrirda bayon etish:

*«196<sup>2</sup>-modda. O‘zbekiston Respublikasining Davlat chegarasini qo‘riqlash bo‘yicha xizmat vazifasini bajarayotgan harbiy xizmatchining (xodimning) o‘z xizmat burchini bajarishiga qarshilik ko‘rsatish.*

*O‘zbekiston Respublikasining Davlat chegarasini qo‘riqlash bo‘yicha xizmat vazifasini bajarayotgan harbiy xizmatchining (xodimning) o‘z xizmat vazifalarini bajarishi bilan bog‘liq qonuniy talablarini bajarmaslikka ommada oldida har qanday shaklda da‘vatlar qilish, xuddi shuningdek Davlat chegarasini qo‘riqlash bo‘yicha xizmat vazifasini bajarayotgan harbiy xizmatchilarga (xodimlarga) ommaviy ravishda bo‘ysunmaslikni keltirib chiqarish maqsadida bila turib soxta uydirmalarni tarqatish»;*

4) 224-moddasini quyidagi tahrirda bayon etish:

*«224-modda. Chegara rejimini buzish*

*Chegara zonasiga kirish (undan chiqish), undan o‘tish, u yerda bo‘lish (yashash), harakatlanish, xo‘jalik faoliyatini hamda boshqa faoliyatni amalga oshirish qoidalarini buzish –*

*bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.*

*Chegara zonasiga kirishga hamda u yerda bo‘lish (yashash)ga oid qoidalarni buzgan shaxslarning bunday joylarda yashashiga yo‘l qo‘yish –*

*bazaviy hisoblash miqdorining besh baravari miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi»;*

5) 224<sup>1</sup>-moddasining dispozitsiyasini quyidagi tahrirda bayon etish:

*«O‘zbekiston Respublikasi Davlat chegarasi orqali o‘tkazish punktlaridagi rejim qoidalarini buzish»;*

6) Kodeksni quyidagi mazmundagi 224<sup>3</sup>-modda bilan to‘ldirish:

*«224<sup>3</sup>-modda. O‘zbekiston Respublikasi Davlat chegarasi rejimini buzish*

*O‘zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi rejimini buzish, ya‘ni Davlat chegarasini shaxslar va transport vositalari tomonidan kesib o‘tish, Davlat chegarasi orqali tovarlarni olib o‘tish, Davlat chegarasida va chegara mintaqasida bo‘lish, xo‘jalik faoliyatini hamda boshqa faoliyat yuritish tartibini belgilovchi qoidalarni buzish, basharti jinoyat alomatlari mavjud bo‘lmagan taqdirda –*

*fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining uch baravaridan besh baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa, – besh baravaridan o‘n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.*

*Xuddi shunday huquqbuzarlik ma‘muriy jazo chorasi qo‘llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo‘lsa, –*

*fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o‘n baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa, – o‘n baravaridan o‘n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.*

*Ushbu moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan huquqbuzarlik chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar tomonidan sodir etilgan bo‘lsa, –*

*bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o‘n baravarigacha jarima solishga yoki ularni keyinchalik O‘zbekiston Respublikasiga kirish huquqi bir yildan uch yil muddatgacha cheklangan holda O‘zbekiston Respublikasi hududidan ma‘muriy tarzda chiqarib yuborilishiga sabab bo‘ladi»;*

7) 225-moddasining yettinchi va sakkizinchi qismlarida keltirilgan «O‘zbekiston Respublikasi hududidan chiqarib yuboriladi» so‘zlarini «O‘zbekiston Respublikasi hududidan ma‘muriy tarzda chiqarib yuboriladi» so‘zlari bilan almashtirish;

8) 245-moddasi birinchi qismidagi «224<sup>2</sup>-moddasida» so‘zlaridan keyin «224<sup>3</sup>-moddasi uchinchi qismida» so‘zlari bilan to‘ldirish;

9) 248<sup>2</sup>-moddasini quyidagi tahrirda bayon etish:

«248<sup>2</sup>-modda. O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo‘shinlari

O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo‘shinlariga ushbu Kodeksning **81-moddasi, 90-moddasining birinchi qismida, 224-moddasida, 224<sup>1</sup>-moddasining birinchi qismida, 224<sup>3</sup>-moddasining birinchi va ikkinchi qismlarida, 225-moddasining birinchi, ikkinchi va uchinchi qismlarida nazarda tutilgan ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlar taalluqlidir.**

O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo‘shinlari bo‘linmalarining boshliqlari va ularning o‘rinbosarlari, **shuningdek Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo‘shinlari chegara nazorati bo‘linmalari chegara naryadlari smena kattalari O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo‘shinlari nomidan ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqishga va jarima tarzida ma‘muriy jazo chorasi qo‘llashga haqli.**

**Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning mazkur Kodeksning 224<sup>1</sup>-moddasi uchinchi va to‘rtinchi qismlari, 224<sup>3</sup>-moddasi uchinchi qismi hamda 225-moddasi yettinchi va sakkizinchi qismlarida nazarda tutilgan ma‘muriy huquqbuzarliklarni sodir etganliklari Davlat chegarasi orqali o‘tkazish punktlarida aniqlangan taqdirda, mazkur moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan shaxslar O‘zbekiston Respublikasi hududidan ma‘muriy tarzda chiqarib yuborish jazosini qo‘llashga haqli»;**

10) 284-moddasini quyidagi mazmundagi beshinchi qism bilan to‘ldirish:

«**Davlat chegarasini qo‘riqlash sohasidagi ma‘muriy huquqbuzarliklar sodir etilgan taqdirda huquqbuzar O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo‘shinlari harbiy xizmatchisi tomonidan huquqbuzarlikka barham berish, huquqbuzarning shaxsini aniqlash va huquqbuzarlik to‘g‘risida bayonnoma tuzish uchun O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo‘shinlari bo‘linmasiga, ichki ishlar organiga yoxud fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi binosiga ushlab keltirilishi mumkin»;**

11) 286-moddasini quyidagi mazmundagi to‘rtinchi qism bilan to‘ldirish:

«**O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida nazarda tutilgan holatlarda, chet el fuqarosi ma‘muriy yo‘l bilan ushlab turilganda, mazkur shaxsning talabiga muvofiq, uning qaysi davlat fuqaroligiga qarab, u ma‘muriy yo‘l bilan ushlab turilganligi xususida tegishli konsullik yoki diplomatik muassasalari zudlik bilan xabardor qilinadi»;**

12) 287-moddaning 2-bandidagi «**ushbu Kodeksning 184<sup>2</sup>, 184<sup>3</sup>, 196<sup>1</sup>, 196<sup>2</sup>, 224-moddalarida, 224<sup>1</sup>-moddasining birinchi va ikkinchi qismlarida, 224<sup>2</sup>-moddasida, 225-moddasining birinchi, ikkinchi va uchinchi qismlarida, 227<sup>21</sup>-moddasi birinchi qismida, 227<sup>23</sup>-moddasida» so‘zlarini «**ushbu Kodeksning****

81, 90, 184<sup>2</sup>, 184<sup>3</sup>, 196<sup>1</sup>, 196<sup>2</sup>, 224, 224<sup>3</sup>-moddalarida, 225-moddasining birinchi, ikkinchi, uchinchi, yettinchi va sakkizinchi qismlarida, 227<sup>21</sup>-moddasi birinchi qismida, 227<sup>23</sup>-moddasida» soʻzlari bilan almashtirish;

13) Kodeksni quyidagi mazmundagi 287<sup>1</sup>-modda bilan toʻldirish:

**«287<sup>1</sup>-modda. Maʼmuriy yoʻl bilan ushlab turish joyi va tartibi**

**Maʼmuriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxslar maʼmuriy yoʻl bilan ushlab turiladi.**

**Maʼmuriy yoʻl bilan ushlab turilgan shaxslar sanitariya, yongʻin va texnik talablarga javob beradigan va vakolatli shaxslarning ruxsatisiz chiqib ketish imkoniyatini istisno qiladigan maxsus ajratilgan binolarda saqlanadilar.**

**Maʼmuriy yoʻl bilan ushlab turilgan shaxslarni ushlab turish shartlari, ovqatlanish meʼyorlari va bunday shaxslarga tibbiy xizmat koʻrsatish tartibi Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.**

**Maʼmuriy yoʻl bilan ushlab turilgan voyaga yetmagan shaxslar kattalardan, ayollar esa erkaklardan alohida saqlanadi»;**

14) 288-moddasi ikkinchi qismini quyidagi tahrirda bayon etish:

**«Ushbu kodeksning 81, 90, 184<sup>2</sup>, 184<sup>3</sup>, 196<sup>1</sup>, 196<sup>2</sup>, 224-224<sup>3</sup>-moddalarida, 225-moddasining birinchi, ikkinchi, uchinchi, yettinchi va sakkizinchi qismlarida, 227<sup>21</sup>-moddasi birinchi qismida, 227<sup>23</sup>-moddasida nazarda tutilgan huquqbuzarliklar Oʻzbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qoʻshinlari tomonidan aniqlangan taqdirda, mazkur huquqbuzarliklarni sodir etgan shaxslar bayonnoma tuzish uchun uch soatgacha muddatga ushlab turilishi mumkin, huquqbuzarning shaxsini va huquqbuzarlik holatlarini aniqlash uchun zarur boʻlgan hollarda esa – ushlab turish paytidan boshlab yigirma toʻrt soat ichida prokurorga yozma tarzda maʼlum qilib, qirq sakkiz soatgacha yoki huquqbuzarda oʻzining shaxsini tasdiqlovchi hujjat boʻlmasa, sudning ajrimi bilan oʻn sutkagacha muddatga ushlab turilishi mumkin»;**

15) 289-moddasida:

ikkinchi qismni quyidagi tahrirda bayon etish:

**«Shaxsni koʻrikdan oʻtkazish koʻrikdan oʻtkazilayotgan shaxs bilan bir jinsda boʻlgan shaxslar tomonidan va shu jinsdagi ikkita xolis ishtirok etgan holda yoxud videoyozuv qoʻllash orqali amalga oshirilishi mumkin»;**

toʻrtinchi qismidagi «xolis guvoh ishtirokida» degan soʻzlar «xolis ishtirokida yoxud videoyozuv qoʻllash orqali» degan soʻzlar bilan almashtirish;

16) 290-moddasi birinchi qismida keltirilgan «mansabdor shaxslar tomonidan» soʻzlaridan keyin «**ikki nafar xolis ishtirokida yoxud videoyozuv qoʻllash orqali**» soʻzlari bilan toʻldirish;

17) 291-moddaning birinchi qismi «e» kichik bandidagi «ushbu Kodeksning 184<sup>2</sup>, 184<sup>3</sup>, 196<sup>1</sup>, 196<sup>2</sup>, 224-moddalarida, 224<sup>1</sup>-moddasining birinchi va ikkinchi qismlarida, 224<sup>2</sup>-moddasida, 225-moddasining birinchi, ikkinchi va uchinchi qismlarida, 227<sup>21</sup>-moddasi birinchi qismida, 227<sup>23</sup>-moddasida» soʻzlarini «ushbu Kodeksning 81, 90, 184<sup>2</sup>, 184<sup>3</sup>, 196<sup>1</sup>, 196<sup>2</sup>, 224-224<sup>3</sup>-moddalarida, 225-moddasining birinchi, ikkinchi, uchinchi, yettinchi va sakkizinchi qismlarida, 227<sup>21</sup>-moddasi birinchi qismida, 227<sup>23</sup>-moddasida» soʻzlari bilan almashtirish;

18) Kodeksni quyidagi mazmundagi 298<sup>1</sup>-modda bilan to'ldirish:

**«298<sup>1</sup>-modda. Xolislar**

